

Umumiy o'rta ta'limning O'qish savodxonligi bo'yicha dars ishlanmalari
2-sinf (3-chorak)

14-mavzu: Ulug'shoir va mutafakkir

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Oqilona javob" rivoyat mazmuni bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: buyuk bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: xulosa va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, savollar yozilgan kartochkalar.

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-Mavzuga qiziqtirish: **Mantiqiy savollarga javob bering.**

U sizga tegishli, ammo boshqalar uni sizdan ko'proq foydalanishadi. U nima? (Ism)

Javob: Ismingiz.

Bu narsa har doim yoningizda, lekin uni ko'rmasangiz, u yo'q, ko'rmasangiz bor. U nima?

Javob: Soyangiz.

U juda og'ir, lekin uni ko'tarish uchun hech qanday kuch sarflanmaydi. U nima?

Javob: Havo.U doimo harakatda, lekin hech qachon joyini o'zgartirmaydi. U nima?

Javob: Soat.U har doim bir xil, lekin uni har doim yangilab turasiz. U nima?

oJavob: Rasm yoki surat.

2. Unda dunyodagi barcha bilimlar mujassam, lekin o'zi hech qachon so'zlamaydi. U nima?

o Javob: Kitob.

3. U har doim yo'lda, lekin hech qachon o'zi yurmaydi. U nima?


o Javob: Xarita.

Bu savollar o'quvchilarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi va ular uchun qiziqarli bo'ladi.

- O'tilganlarni takrorlash: She'r yoddan so'raladi. Mirzo Ulug'bek haqida qisqacha ma'lumotlar o'qitiladi.

2. Asosiy qism(mavzuni tushuntirish va mustahkamlash):

Amaliy topshiriq. Partadoshingiz bilan ushbu rebusni yeching.



R=L

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qanday so'z hosil bo'ldi?
2. Kim boshqacha o'ylaydi?
3. Bu so'z haqida nima deya olasiz?

Mavzuni tushuntirish. Alisher Navoiy haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Alisher
Navoiy
1441-1501

Buyuk shoir va mutafakkir,
davlat arbobi.



Ulug' shoir va mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy Hirotida tug'ildi. Uning to'liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Alisher Navoiy kichiklik chog'idan kitobga mehr qo'ydi. U maktabda bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi.

☒ Yashiringan so'zni topsangiz, Alisher Navoiyning mashhur asari nomini bilib olasiz.

XAMSA

☒ **Matn ustida ishlash.** "Oqilona javob" rivoyati o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

-Rivoyat kimlar haqida?

-Navoiyning shogirdlari qanday voqeaning guvohi bo'ldi?

-Ayting-chi, imo-ishoraning ma'nosi nima ekan?

Lug'at ishi.

jumboq-topishmoq

xayoli parishon- xayoli tarqoq, fikri-xayoli joyida emas.

 **Mashq daftari bilan ishlash.** Daftardagi topshiriqlar bajariladi.

Alisher Navoiyga tavsif beriladi.

Qahramon nomi: Alisher Navoyi

Asarda qahramonning tutgan o'rni: bosh qahramon

Qahramonning fikrlari: Boshga baloni til keltiradi.

Qahramonning fe'l-atvori haqida xulosa: aqlli, ziyrak

 **"O'gitlar sandig'i" mashqi o'tkaziladi.**

Alisher Navoiy hikmatlari o'qitiladi va mazmuni izohlanadi.

1. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

2. Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganch ila.

3. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

4. Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

3. Darsni yakunlash va baholash:

Alisher Navoyi haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

Darsda sizga nima qiziq bo'ldi?

 **Uyga vazifa:** Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
Hikmatlardan yod oling.

15-mavzu: Adolatli shoh va buyuk shoir

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Boburning ustozlari" rivoyati bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: buyuk bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: og'zaki nutqini va lug'at boyligini oshirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, „O'gitlar sandig'i“.

Darsning blok chizmasi:

1. Kirish qismi (tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

- Mavzu nomi e'lon qilinadi.

- Tashkiliy savollar beriladi.

- Qizitish bosqichi: **“Yaxshi xotiralar” o'yini**

O'quvchilar doskaga taklif qilinadi va hamma bir-birining ortiga saflanib turadi. Ularning qo'llariga qog'oz va ruchka beriladi. Hamma tik turgan holatda bir-birining orqa kurak qismida sinfdoshini yaxshi tomonlarini ta'riflab yozadi va o'quvchilar bir-birlariga o'girilib, estalik uchun ta'riflangan o'quvchining o'ziga topshiradilar.

Masalan, “Komila, sen judayam aqlli va mehribon qizsan” deb uning ortidagi dugonasi unga tayangan holda yozadi va o'ziga topshiradi.